



## MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA INGLIZ VA NEMIS TILLARINI O'RGATISH SAMARADORLIGI



**Karimberdiyeva Noila Ibratjon qizi**

*Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili), 203-guruh talabasi,*

*Oriental universiteti, Toshkent*

**Saidova Maxsudaxon Abbasovna**

*Katta o'qituvchi, Oriental universiteti, Toshkent*

**ABSTRACT.** This article analyzes the effectiveness of learning English and German through mobile applications based on student experience and school practice. Digital tools, linguistic methods, and practical observations were applied. The article is intended for students and language learners.

**Keywords:** *mobile applications, digital linguistics, language learning, effectiveness, English, German*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada mobil ilovalar yordamida ingliz va nemis tillarini o'rgatish samaradorligi talaba tajribasi va maktabdagi amaliyot orqali tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli vositalar, tilshunoslik metodlari va amaliy kuzatuvlar qo'llanildi. Maqola til o'rganuvchilar va talaba tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** *mobil ilovalar, raqamli tilshunoslik, til o'rganish, samaradorlik, ingliz tili, nemis tili*

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье анализируется эффективность изучения английского и немецкого языков с помощью мобильных приложений на основе опыта студентов и школьной практики. Использовались цифровые инструменты, лингвистические методы и практические наблюдения. Статья предназначена для студентов и изучающих язык.

**Ключевые слова:** *мобильные приложения, цифровая лингвистика, изучение языка, эффективность, английский язык, немецкий язык*

**KIRISH.** Til inson tafakkuri va ijtimoiy hayotning eng muhim vositasidir. U fikrlarni ifodalash, bilim va tajribani avloddan avlodga yetkazish imkonini beradi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy meros, tarixiy xotira va jamiyatning intellektual taraqqiyoti uchun ham muhimdir. Ingliz va nemis tillari esa bugungi kunda xalqaro muloqot, ilmiy va professional faoliyat uchun eng zarur tillardir.

Mobil ilovalar interaktiv va motivatsiyani oshiruvchi vosita sifatida til o'rganishni osonlashtiradi. Bu ilovalar yordamida o'quvchilar grammatika, so'z boyligi, talaffuz va nutq ko'nikmalarini o'yin shaklida va mustaqil ravishda rivojlantira oladi.

Til o'rganish samaradorligi pre-test va post-test orqali baholanadi. Pre-test boshlang'ich bilimni, post-test esa mashqlar va amaliyot orqali erishilgan bilim darajasini ko'rsatadi. Shu jarayon orqali talabalar o'z bilimini mustahkamlashadi va mobil ilovalarning samaradorligi aniq ko'rinadi.



Tadqiqot davomida talaba fonetika, morfologiya, sintaksis va leksikologiya bo'yicha nazariy manbalarni o'rgandi.

Mashqlar va testlar tayyorlandi. Shu orqali so'z va iboralarning ma'no munosabatlari, gap tuzilmalari va talaffuz xususiyatlari tahlil qilindi.

Talaba Duolingo (ingliz tili) va Memrise (nemis tili) ilovalarida mashqlarni bajarib, til o'rganishni amaliyotda qo'lladi.

Mashqlarni boshlashdan oldin pre-test o'tkazildi. Bu test talabning boshlang'ich bilim darajasini ko'rsatdi. Mashqlarni bajarib bo'lgach, post-test o'tkazildi. Shu natijalar pre-test bilan solishtirildi va o'quv samaradorligi aniqlanadi.

Maktabdagi amaliyot davomida talaba 10-sinf o'quvchilari bilan mashg'ulotlar olib bordi. Talabalar mashqlarni mustaqil bajarishdi va natijalar qayd qilindi.

Onlayn chat va forumlar orqali nutq va muloqot ko'nikmalari kuzatildi. Shu jarayon orqali talabning mobil ilovalar yordamida tilni real ishlatish qobiliyati baholandi.

**NATIJARLAR.** Natijalar shuni ko'rsatadiki, mobil ilovalar talabalarning til o'rganish samaradorligini oshiradi. Mashqlarni mustaqil bajarish orqali talabalar bilimlarini mustahkamladi, onlayn muloqot orqali nutq ko'nikmalari rivojlantirildi. Maktab amaliyotida kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, mobil ilovalar interaktiv va motivatsiyani oshiruvchi vosita sifatida samarali.

Ingliz tili: Talabalar pre-testdan o'tkazildi. Test 15 ta savoldan iborat bo'lib, o'rtacha 9 ta savol to'g'ri javoblandi. Bu talabning mashqlarni boshlashdan oldingi bilim darajasini ko'rsatdi. Mashqlarni bajarib bo'lgach, post-test o'tkazildi. Post-test natijalariga ko'ra, talaba o'rtacha 12 ta savolni to'g'ri javob berdi. Bu mashqlar va amaliyot orqali bilim darajasi oshganini ko'rsatdi.

Nemis tili: Pre-test davomida talabalar 20 ta so'zdan o'rtacha 12 tasini to'g'ri javob berishdi. Bu talabning boshlang'ich bilim darajasini ko'rsatdi. Post-test natijalari esa 17 ta so'z to'g'ri javob berilgani bilan yakunlandi. Bu mobil ilovalar yordamida so'z boyligi va grammatika ko'nikmalari oshganini aniq ko'rsatdi.

Talabalar onlayn chat va forumlarda qisqa dialoglar yozish mashqlarini bajarishdi. Shu kuzatishlar orqali talabning mobil ilovalar yordamida o'rganilgan bilimni real nutqda qo'llash qobiliyati aniqlanadi. Mashqlar davomida xatolar qayd etildi va keyingi mashqlarda tuzatildi, bu esa bilimni mustahkamlashga yordam berdi.

**XULOSA.** Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mobil ilovalar yordamida ingliz va nemis tillarini o'rgatish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Pre-test va post-test natijalari aniq tasdiqladiki, talabalarning so'z boyligi, grammatika qoidalarini tushunishi va nutq ko'nikmalari mobil ilovalar yordamida mustahkamlanadi. Bu esa talabalarga mustaqil o'rganish, mashqlarni qayta bajarish va o'z bilimini baholash imkonini beradi.

Amaliyot davomida, talaba 10-sinf o'quvchilari bilan olib borilgan mashg'ulotlar shuni ko'rsatdiki, mobil ilovalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki praktik nutq va muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Talabalar onlayn chat va forumlarda dialoglar yozish orqali real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llash ko'nikmasini mustahkamlashdi. Shu bilan birga, mobil ilovalar interaktivligi va o'yin shaklidagi mashqlar orqali motivatsiya va qiziqishni oshirish imkoniyatini beradi.



Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mobil ilovalar yordamida til o’rgatish nafaqat individual mashqlarni, balki masofaviy va onlayn ta’limni ham samarali qilishi aniqlandi. Kelajakda, mobil ilovalar asosida yaratiladigan yangi pedagogik metodlar va mashqlar orqali talabalarning til o’rganish samaradorligi yanada oshirilishi mumkin. Shuningdek, talabalarning o’z bilimini baholash va rivojlantirish qobiliyatini rivojlantirish, tilni kontekstga mos ishlatish va nutq madaniyatini oshirish imkoniyati ham mavjud. Mobil ilovalar nafaqat hozirgi zamon talabalari uchun samarali o’quv vositasi, balki kelajak avlodlar uchun ham til o’rganish jarayonini interaktiv va motivatsion tarzda tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o’quvchilarning bilimini kengaytiradi, madaniy merosni saqlashga yordam beradi va ilm-fan hamda texnologiya rivojiga hissa qo’shadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Axmedova, G. Tilshunoslik asoslari. Toshkent: O’qituvchi, 2015. — B.192
2. Jurafsky, D., Martin, J. H. Speech and Language Processing. Pearson, 2009. — P. 350
3. Mitkov, R. The Oxford Handbook of Computational Linguistics. Oxford University Press, 2005. — P. 680
4. Crystal, D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell, 2008. — P. 500.
5. Koehn, P. Statistical Machine Translation. Cambridge University Press, 2010. — P. 400.
6. Karimov, S. Ona tili va uning ta’limi. Toshkent: Fan, 2018. — B. 210.